

OMON MATJON SHE'RIY MATNLARIDA O'XSHASH TOVUSHLI ALLITERATSIYA HODISASI

Sharofova Sevinch Jamoliddin qizi,
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU
O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi
sharofovasevinch801@gmail.com

Kurbanova Muhabbat Matyokubovna,
Filologiya fanlari doktori, professor

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining zabardast vakili Omon Matjon she'riy matnlaridagi fonopoetik vositalardan biri alliteratsiya hodisasining ahamiyati o'rganilib, o'xshash tovushlar o'rtasida yuzaga keladigan turning shoir she'riyatida tutgan o'rni adibning poetik matnlaridan olingan misollar orqali ko'rib chiqildi.

Kalit so'zlar: fonopoetika, fonostilistika, poetik matn alliteratsiya, takror, konsonans, dissonans.

Annotation. This article examines the significance of alliteration as one of the phonopoetic devices in the poetic texts of Omon Matjon, a prominent representative of Uzbek literature. It explores the role of alliteration arising from similar sounds in the poet's work, illustrated through examples drawn from his poetic texts.

Keywords: phonopoetics, phonostylistics, poetic text, alliteration, repetition, consonance, dissonance.

Аннотация. В данной статье рассматривается значение аллитерации как одного из фонопоэтических средств в поэтических текстах Омона Матджона — выдающегося представителя узбекской литературы. Освещается роль аллитерации, возникающей на основе сходных звуков, в поэзии автора на примере материалов, взятых из его поэтических произведений.

Ключевые слова: фонопоэтика, фоностилистика, поэтический текст, аллитерация, повтор, консонанс, диссонанс.

Kirish. Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek tilshunosligida lingvopoetikaning tarkibiy qismi sifatida shakllanib borayotgan fonopoetik tahlil yo'nalishi asosida fonetik birliklarning she'riy matnda badiiylikni yuzaga keltirishdagi o'rni yoritiladi. Poetik nutqda ohangdorlik va ekspressivlikni kuchaytiruvchi fonopoetik vositalar o'quvchi hissiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatib, matnning estetik qimmatini oshiradi. Ishda shoir Omon Matjon ijodida alliteratsiya hodidasidan foydalanish mahorati lingvopoetik yondashuv asosida tahlil etiladi. Tadqiqot ob'ekti sifatida shoirning she'riy matnlari tanlangan bo'lsa, predmeti badiiy asarlarda qo'llanilgan fonopoetik vositalarning lingvopoetik xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Shuningdek, Omon Matjon she'riyati misolida muallifning fonetik imkoniyatlardan badiiy maqsadda foydalanish usullari o'rganiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlari. Tadqiqot jarayonida Omon Matjonning she'riy asarlari asosiy manba sifatida xizmat qildi. Ishning predmeti badiiy matnlardagi fonopoetik vositalarning lingvopoetik jihatlarini tahlil qilishga qaratilgan. Ilmiy asos sifatida S. Karimovning "O'zbek tilining fonetik stilistikasi", S. Umirovaning "O'zbek she'riyatida lingvistik vositalar va poetik individuallik", M. Qurbonova hamda M.

Yoʻldoshevlarning “Matn tilshunosligi” asarlari, shuningdek, Omon Matjonning “Maqsudam” toʻplami va fonetik sath birliklariga bagʻishlangan qator ilmiy maqolalar hamda tilshunoslik lugʻatlaridan foydalanildi.

Natijalar va muhokama. Alliteratsiya hodisasi adabiyotshunoslik va tilshunoslikda keng qoʻllaniladigan uslubiy vositalardan biri boʻlib, unda bir xil yoki oʻxshash tovushlarning (asosan, undosh tovushlarning) ketma-ket yoki bir-biriga yaqin joylashgan soʻzlarning boshida takrorlanishi kuzatiladi. Bu shunday uslubiy vositaki, u adabiy asarlar, sheʼriy misralarning ritmini yaratish, ohangdorligini oshirish, maʼlum maʼnoni taʼkidlash vazifasini bajaradi. R.Qoʻngʻurov sheʼriy matnda bir xil tovushlarning takrorlanishini [6. 137], S.Karimov, umuman, poetik asarlarning turli oʻrinlaridagi tovush takrorini alliteratsiya deb ataydilar.[3. 55] Ammo bu fikrlar alliteratsiyaning mohiyatini toʻla ochib bera olmaydi. Chunki ushbu taʼriflarga koʻra alliteratsiya hodisasi faqatgina goʻyoki soʻz boshidagi tovushlarninggina takrori. Ushbu fonostilistik hodisa O.Axmanova tomonidan birmuncha keng sharhlangan: alliteratsiya bir xil yoki bir-biriga oʻxshash tovushlarning yoki tovush birikmalarining:

- a) boʻgʻin boshida, odatda, taqlidiy soʻzlarda;
- b) soʻz boshida, odatda, turgʻun birikmalar;
- c) juft soʻzlar boshida takrorlanishi aytib oʻtilgan. [2. 40]

Alliteratsiyaning mohiyati ushbu taʼrifda deyarli toʻliq ochib berilgan. Alliteratsiya hodisasi bu bir xil yoki bir-biriga talaffuzi yaqin tovushlarning soʻz yoki boʻgʻin boshidagi takrori hisoblanadi, deya baholashimiz mumkin.

Shoir Omon Matjon sheʼriyatida alliteratsiya hodisasining ikkinchi turi, yaʼni oʻxshash tovushli alliteratsiya hodisasi ham uchray turadi. Bir xil undoshli alliteratsiya kabi sarmahsul boʻlmasa-da, shoir sheʼriyatida talaffuzi bir-biriga yaqin alliteratsiya hodisasining ham oʻziga xos oʻrni bor. Jumladan, shoirning “Gaplashadigan vaqtlar” turkumiga kiritilgan sheʼrlarida oʻxshash tovushli alliteratsiya hodisasining namunalari kuzatishimiz mumkin:

Botirlar ishidan shod tursak, ammo

Hush-u xayollarni boʻgʻdi boʻlak hol.

Hamma narsa erkin boʻlganda endi

Oʻzimiz yurolmay qoldik bermalol [4. 42].

“Tarix muzeyida” nomli sheʼrdan olingan ushbu parchada alliteratsiya hodisasi talaffuz jihatdan bir-biriga juda yaqin boʻlgan jarangsiz, sirgʻaluvchi tovushlar *h* va *x* undoshlari bilan boshlanuvchi *hush* va *xayol* soʻzlari yordamida hosil boʻlgan. Ushbu talaffuzdosh tovushlarning misralardagi vazifasi shoirning oʻychanlik, mahzun holatini ifodalashdan iborat. Shu bilan birga bu parchada *hush* va *xayol* leksemalari tarkibida sirgʻaluvchi undoshlarning soni portlovchi tovushlarga nisbatan koʻp boʻlganligi misraga sokinlik holatini baxsh etmoqda. Omon Matjon poetik matnlarida oʻxshash undosh tovushlarning takrorlanib alliteratsiya hosil qilishi eng koʻp hollarda aynan mana shu *x* va

h undoshlari vositasida yuzaga keladi.

Favqulodda zehni bois, hikmat xurmosi

haqidagi rivoyat ham sabab, qoshiga

Kelguvchilar kundan kunga ko'payaverdi [4. 126].

Agar bir xil undosh tovushli alliteratsiya hodisasi bir misradagi uch-to'rt, ba'zi o'rinlarda besh so'z tarkibida bir xil tovushlar yordamida hosil bo'lgan bo'lsa, o'xshash tovushli alliteratsiya hodisasi esa ko'p hollarda yonma-yon kelgan ikki so'z yordamida hosil bo'ladi. Quyidagi misrada ham shu namunani uchratish mumkin:

Aytmoqchiydi: "Hov, birodar, xotira hatto

Qayerdadir mashinaga – sovuq temirga

Kerak bo'пти. Robot degan narsa emish bu!" [4. 105]

Yuqoridagi parchani fonopoetik jihatdan tahlil qilar ekanmiz, bunda birinchi misrada *hov*, *xotira*, *hatto* kabi leksemalar yonma-yon kelgan va ular tarkibidagi *x* va *h* kabi undosh tovushlar talaffuzda bir-biriga juda yaqinligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, bu to'rtlikda shoirning *bo'libdi* so'zini *bo'пти* shaklida qo'llashi ham fonetik jarayon, ya'ni so'zning talaffuz tomoni bilan bog'liq hodisa hisoblanadi. Chunki agar ijodkor bu misrada *bo'пти* so'zini emas, *bo'libdi* so'zini qo'llaganda, she'ning vazni barmoq talabiga mos kelmay qolar va talaffuzda bu qadar ohangdorlik birmuncha pasaygan bo'lar edi.

Ertasi kun Anvar butlab, hofizni xursand

Yotoqxonada eshigiga keldi-yu bunda

Hukm surgan sukunatga e'tibor qilmay,

Orqasiga qaytdi – shahar markazi tomon [4. 116].

Shu xil holatni kuzatamiz e'tibor bersak...[4. 117]

Yuqorida keltirilgan parchada ham aynan *h* va *x* tovushining alliteratsion holatining guvohi bo'lamiz.

Hamma xalq olamda teng, har el zamon guldastasi

Lekin avval o'z yerin maqtab gapirgan baxtlidir [4. 45].

“Baxtiyor” nomli ushbu she'rda shoir *hamma* jamlovchi olmoshidan so'ng ko'plikni, birgalikni ifodalovchi *xalq* so'zini keltirib, alliteratsiyani hosil qilmoqda va o'quvchi e'tiborini xalq so'ziga qaratishni maqsad qilib olgan holda o'qirmanga lirik qahramonning xalqiga bo'lgan mehr-muhabbati, yurtidan faxrlanish hissi kabi tuyg'ularini yuqtirmoqchi bo'lmoqda. “Maqsudam” nomli she'rdan olingan quyidagi misolda ham aynan yuqorida tovushlar alliteratsiyani hosil qilib, ohangdorlikni yuzaga keltirgan:

Men taqdir nonini injilmay tishlab,

Bor elning baxtidan shodon bo'laman.

Suyuklim qalbida to sog'inchki bor,

Men, demak, xaliman, hamon bo'laman [4. 7].

Bunda ijodkorning shodon holati bilan birga mahzun kayfiyati ham yaqqol ko'zga

tashlanadi. Negaki shoirning muhabat mavzusi qalamga olingan ushbu she'rida armon bo'lgan sevgi tasvirlangan. Garchi bu yerda x va h tovushli so'zlarning yonma-yon kelishi ma'no tomoniga ta'sir qilmagan bo'lsa-da, ammo so'nggi misrada kelishi lirik qahramonning mahzunlik holatini ifodalashga bir qadar xizmat qilgan. Chunki bu undosh tovushlar yumshoq talaffuz qilinuvchi sirg'aluvchi tovushlar sirasiga kiradi.

Omon Matjon she'riyatini tahlil qilar ekanmiz, x va h tovushlaridan tashqari q va k kabi undoshlarning ham o'xshash tovushli alliteratsiyani yuzaga keltirishda faol ekanligiga guvoh bo'ldik:

To'xta, to'xta! Bunday to'yga – ajib yig'inga,

Otasi qay qiyofada kirib kelardi?!

Kimsan, Rahim Sodiqov-a? Ma'rifatchi qalb! [4. 187]

Turkiy tillar tadqiqiga bag'ishlangan ko'plab adabiyotlarda k va q tovushiga alohida ahamiyat beriladi, chunki bu tovushlar qatnashgan so'zlarda unililar qo'llanishida old va orqa qator yoki yumshoq, qattiq variantlari farqlanadi. k undoshining yumshoq talaffuz qilinishi, q undoshining esa qattiq talaffuz qilinishi u bilan birga keladigan unililarni farqlab beradi. Garchi q va k tovushlari jarangli-jarangsiz juftlik hosil qilmasa-da, bu tovushlar bilan boshlanuvchi so'zlar yonma-yon kelganda ohangdorlik hosil qiladi. Buning yaqqol namunasini quyidagi misolda ham ko'rishimiz mumkin:

Yo kosmosda qurmaydilar kommunizmni,

Shu qishloqda o'zimizga qurishimiz shart! [4. 184]

Bu misralarda talaffuzda portlab chiqadigan k va q tovushi bilan boshlanuvchi *kosmos*, *qurmoq*, *kommunizm* kabi leksemalarning yonma-yon kelishi o'xshash tovushli alliteratsiya hodisasini yuzaga keltirgan. Shuningdek, bu kabi portlovchi undosh tovushlar orqali she'rda qat'iylik, keskinlik holatlari yaqqol namoyon bo'lib turibdi. Lirik qahramonning ikkinchi misrada aytgan qat'iy fikriga q tovushi bilan boshlanuvchi qishloqda, qurishimiz so'zlarining ham ketma-ket kelishi qat'iylik ohangini yanada kuchaytirmoqda. Ushbu tovushlar takrori orqali hosil bo'lgan alliteratsiya hodisasi Omon Matjon she'riyatida juda unumdor:

Chiroq o'chgan mahalida qorong'ilik ham

boshqacharoq, ko'p quyugday ko'ringan edi.

Bir ismsiz bo'shliq ichra qoldi u hozir [4. 124].

Ushbu she'riy misralarda peyzaj tasviri mavjud bo'lib, atrof-muhitdagi zulmat, tun holati tasvirlanmoqda. Bilamizki, qorong'i tun lirik qahramonning, asosan, mahzunlik, sokinlik holati bilan birga jiddiylik kayfiyatini ham namoyon etadi. Yuqoridagi she'riy parchada *ko'p*, *quyugday*, *ko'ringan* so'zlarining yonma-yon kelishi ana shu jiddiylik holatini ifodalab kelgan va bu tovushning qat'iy xarakteri tasvirni yanada jonli qiladi.

Sal narida, pastqam o'tloq, o'rikzor ichra

ko'rdi ko'rkam qurch-qurch qishloq ko'chalarini [4. 93].

Ushbu she'riy parcha tabiat tasvirini ifodalamoqda, bunda k va q kabi o'xshash tovushli so'zlarni ketma-ket keltirilib, alliteratsiya hodisasi hosil qilinmoqda. Odatda, Omon Matjon ijodida tabiat va inson o'rtasidagi bog'liqlik asosiy mavzulardan biri hisoblanadi. Shoirning she'rlarida yomg'irning tomchilashi, shamolning shitirlashi, qushlarning sayrashi, chigirtkalarining chirillashi kabi tovushlarni ifodalashda fonik vositalardan foydalanadi. Bunday she'rlarida o'quvchi o'zini go'yoki o'sha tabiat muhitiga tushib qolgan kabi his qiladi. Yuqorida keltirilgan she'rda ham qurch-qurch taqlid so'zining qo'llanishi undan oldin va keyin kelgan ko'rdi, ko'rkam, qishloq, ko'chalarini kabi so'zlarga ohang jihatdan mutanosib qo'llangan. Odatda, quruq narsalar sinishida yoki bir-biriga ishqalanib chiqaradigan ovozni ifodalovchi ushbu taqlid so'z o'quvchining nafaqat xayolida qishloq ko'chalarini gavdalantiradi, balki o'sha manzaraning ovozini ham o'qirmanga his ettiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Lirik qahramonning ichki dunyosini ochib berishga, poetik matnning yanada tasviriyliigi, ohangdorligi va ekspressivligini oshirishga xizmat qiladigan, badiiy matnlarda juda keng qo'llaniladigan alliteratsiya hodisasi Omon Matjon she'riyatida alohida o'rin tutadi. Shoir ijod mahsulining musiqiyiligini oshirishga ximat qiladigan ushbu hodisa muhim fonopoetik vositalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: "O'zME", 2002. – 168 b.
2. [http:// www. Lunaris.narod.ru/book/parts](http://www.Lunaris.narod.ru/book/parts).
3. Karimov S. O'zbek tilining fonetik stilistikasi. Monografiya. – Samarqand: SamDU nashri, 2016. – 160 b.
4. Matjon O. Gaplashadigan vaqtlar. She'rlar. Faqur Fulum nomidaagi Adabiёт va san'at nashriёti, 1986. – 200 b.
5. Umirova S. M. O'zbek she'riyatida lingvistik vositalar va poetik individuallik. Monografiya. – Samarqand: Ipak Yo'li nashriyoti, 2021. – 117 b.
6. Kўnғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 166.
7. Qurbonova M., Yo'ldoshev M. Matn tilshunosligi. – Toshkent: Universitet, 2014.